

„KECHA VA KUNDUZ” ROMANIDAGI GRADUONIMLAR

*Narbayeva Xosiyat*

*Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Turkiy tillar fakulteti O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Bugungi kunda kitob o'qish eng kerakli mashg'ulotdir. Har bir kitobsevar kitob o'qish jarayonida ham ma'naviy ham ilmiy bilimlarga ega bo'ladi. Ushbu maqolada Cho'lponning „Kecha va kunduz” asarida keltirilgan graduonimlar tadqiq qilindi.

**Kalit so'zlar:** Tilshunoslik, sinonim, graduonim, Cho'lpon, „Kecha va kunduz” romani.

**Abstract:** Today, reading is the most necessary activity. Every book lover acquires both spiritual and scientific knowledge in the process of reading books. In this article, the graduonyms mentioned in Cholpon's work „Night and Day” were studied.

**Key words:** Linguistics, synonym, graduonym, Cholpon, „Night and Day” novel.

Zamon rivojlanishi bilan til ham boyib boradi. Tilning qanchalik boyligi unda sinonimlarning ko'pligi bilan belgilanadi. Sinonimlar ko'p ma'noli so'zlar deb ham ataladi. Sinonimlar tashqi ko'rinishi jihatidan har xil, lekin ma'no jihatidan bir xil so'zlardir. Sinonimlar bir xil ma'no anglatgani bilan ular o'rtasida farqlar ham bor. Masalan ular salbiy yoki ijobiy bo'yoqdor bo'lishi mumkin, ma'nolari kuchayib borishiga qarab ham farqlanadi hamda shunday sinonimlar borki ular faqat ayrim uslublar uchungina xoslangan bo'ladi. Sinonimlarning darajalanishi graduonimlar deb ataladi. Graduonimlar deyarli barcha so'z turkumlarida uchraydi. Bugungi kunda ularning tadqiqi haqida ishlar ko'pchilikni tashkil qilmaydi. Graduonimlarni badiiy asarlarda ko'p uchratamiz. Har bir ijodkor bir xil so'zni ishlatishdan qochadi, shundagina asar ta'sirli va o'qishli bo'ladi.

Graduonimiya — leksemalarning ma'no guruhlari a'zolarida u yoki bu belgining darajalanishi. Bunday darajalanish oppozitsiyaning (zidlanishning) bir turi deb qaraladi va shu qatordagi bosh so'zga nisbatan belgilanadi. Masalan: «yosh» belgisiga ko'ra (bosh so'z ajratib ko'rsatilgan): buzoqtana-g'unajin-sigir; qiz-juvon-ayol, «Belgi»dagi darajalanish asosida: chiroyli-suluv-ko'rkam-zebo; «siljish sur'ati» belgisiga ko'ra: yurmoq-chopmoq-yugurmoq-yelmoq kabi.<sup>1</sup>

Abdulhamid Cho'lpon vatan uchun jon fido qilgan jadid adabiyotining vakili hisoblanadi. Uning she'rlari va asarlari kitobxonlar qalbidan o'chmas iz qoldirgan. Cho'lponning „Kecha va kunduz” romani 1933-1934-yillarda yozilgan. Unda jamiyat hayoti, siyosat hamda jadidchlik harakati aks ettirilgan. Asar „Hamal keldi, amal keldi” epigrafi bilan boshlanadi. Bu asarda ham graduonimlarni uchratishimiz mumkin. O'rangan qiz ichkari eshikdan hatlar-hatlkamas paranjini irg'itdiva o'zining bolalik ruhi bilan yugurganicha[1-6] borib Zebini quchoqladi. Erta saharlab chopganim [1-7] bekorga emas. O'z uyining qabristonlar qadar jimjit, xonaqohlat qadar unsiz,o'z ko'ngli qadar tundva xo'mraygan bo'lishini istagan Razzoq so'fi xuddi shu olato'polon ustiga kirib keldi![1-10]Yorug' dunyoga keldingiz shukur qiling! Sevining! Mundoq bir kuling! Kulimsirang! Iljaying![1-11] Qurvonbibi so'zga qancha ephil bo'lsa,Razzoq so'fi shu qadar kamgap indamas, damini ichiga solgan, ziqna odam edi.[1-11] Uyida vaqtida Razzoq so'fi yo ariq bo'yidagi ko'katlarni yulib yo eshik darvozalarni mahkamlab, yo hovlida o'tin qirqib, yo bo'lmasa - ikki qo'li orqasida, dam ichakariga kirib dam tashqariga chiqib, lablarini ari chaqqan odamday og'iz ochmasdan, indamasdan, yura beradi.[1-13] Odamlar ichida, ko'pchilik orasida qistasam, mendan xafa bo'ling.[1-25] Siqilib o'lmaydimi odam?[1-28] Yuragi yomon g'ash bo'lib ketganidan keyin chiday olmasdan, kampirga aytib ko'rdi. Kelinchak Umrinisabibining ko'zlariga bir oz tikilb turgach. Uning uydan chiqib, o'z hovlisiga tomon ketayotganini

<sup>1</sup> H. Jamolxonov “Hozirgi o'zbek adabiy tili” Toshkent “Talqin” - 2005

kelinchak eshik oldida kuzatib turdi.[1-46] Shuning uchun siz chaqirtirsangiz, Xolmat ham xursand bo'ladi, mehmonlari ham O'lmasjon ot ustida orqasiga qayrilib qanday hodisa bo'lganini anglayolmasdan qizlarga tikilgan edi.

Uslubiy bo'yog'iga ko'ra darajalanish:

1. Poyladi, kuzatib turdi, qaradi, tikilib qoldi, yuzlandi.
2. Yuragi g'ash bo'ldi, ko'ngliga og'ir oldi, siqildi, xafa bo'ldi.
3. Cho'chib ketdi, alanglab ketdi, tutoqib ketdi, seskanib ketdi.
4. Kamgap, indamas, damini ichiga solgan.
5. Xotirjam bo'ldi, jim qoldi, indamadi, og'zini ochmadi, damini chiqarmadi.
6. Baqirdi, qichqirdi, hayqirdi, bo'kirdi.
7. Yugurdi, chopdi, quvladi.
8. Tovush, ovoz, un.
9. Ko'k, fazo, osmon.
10. Kulimsiradi, kuldi, iljaydi.
11. Ayb, isnod.
12. O'ng'aysizlandi, shoshirib qo'ydi.
13. Ijizat etolmadi, botinaolmadi.
14. Unsiz, jimjit.
15. Bajara olmadi, eplay olmadi.
16. Kulmoq, quvonmoq, xursand bo'ldi.
17. Anglagan edi, jon kirdi.
18. Payqadi, sezdi.

Asar yozish ham katta mahorat talab qiladi. Ijodkor o'z mahoratini so'zlar yordamida o'quvchiga namoyish qiladi. Bilamizki, Cho'lpon xalq dardini kuylagan ijodkordir, uning har bir asari nafaqat o'z davrining kitobxonlari tomonidan balki, bugungi davr kitobxonlarining ham eng sevimli kitoblari qatoridan joy olgan. Har bir asar misli ko'rilmagan xazina uni tadqiq qilish tilning bor jozibasini anglashga yo'l ochadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Cho'lpon Kecha va kunduz „Sharq nashiryoti - matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahriryati” Toshkent -2016
2. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili Toshkent - „Talqin” - 2005
3. Sharif Bobojonov Ikrom Ismoilov O'zbek tilining so'zlar darajalanishi o'quv lug'ati „Yangi asr avlodi” Toshkent -2007